



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 12 (14)
2025**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 12-son 2025 yil

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

12

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2025

MUNDARIJA

Юлдашев Ш.Г. Редкоземельные металлы в новой геоэкономике: глобальные стратегии и приоритеты развития республики Узбекистан.....	7
Tursunov A.M. Совершенствование экономических механизмов функционирования отрасли.	18
Umurzakova Z.S. Sanoat korxonalarida reklama faoliyati samaradorligini aniqlashning uslubiy jihatlari.....	21
Axunov M.A. Korxonalarda raqobatbardoshlikni baholash uchun tanlangan omillar.....	24
Исраилова Д.К. “Аёллар дафтари” маҳаллабай тизими - аёллар бандлиги ва фаровонлигини таъминлаш омили сифатида.....	28
Шокирова Г.М. Критерии разделения целевой аудитории в сфере цифрового маркетинга.....	33
Vaxtohunova D.N. Bank omonatlari bo‘yicha marketing strategiyalari va ularning real daromadlikka ta’siri.....	36
Xasanova X.F. Investitsilar hisobiga asoslangan xolatda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari tashkil etish tartibi.....	41
Бегимова Д.К. Разработка отраслевых стратегий в Узбекистане.....	45
Mirzayev B.S. CBDC joriy etilishining moliyaviy barqarorlikka ta’siri: imkoniyatlar va xatarlar....	50
Mirzarahimova A.A. Raqamli texnologiyalar asosida sanoat korxonalarida samaradorlikni oshirish yo‘nalishlari.....	53
Азимов О.Т. Ҳалол молиялаштириш инструменти сифатида мурабаха: анъанавий кредит билан қиёсий таҳлил.....	56
Халмирзаев А.А. Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги ихтисослашувини такомиллаштиришнинг асосий йўналишлари.....	62
Шоабдурахимова М.М. Повышение производственной эффективности на предприятиях электронной промышленности на примере Artel Electronics (Узбекистан).....	68
Xolmuratov O.T. Futbol maktablarimiz rivojlanishida xorij mamlakatlari menejmenti va marketingi tajribasi.....	72
Yarashev M.O., Nabieva S.A. Aksiyadorlik jamiyatlarini asosiy va moliyaviy faoliyati samaradorligini oshirish yo‘llari.....	76
Кабилова К. Тадбиркорлик соҳасида коррупциянинг олдини олиш амалиётининг бугунги ҳолати таҳлили.....	80
Махмудова С. Бюджет соҳасини коррупциядан ҳимоя қилишнинг иқтисодий ва ҳуқуқий чоралари.....	85
Захидова Ш.Ш. Университет барқарорлигини таъминлашда унинг фаолиятини халқаро стандартларга мос келадиган тартибда такомиллаштириш.....	89
Saidaxmedov N.X. Raqamli texnologiyalar asosida engil sanoat korxonalarida mehnat unumdorligini oshirish mexanizmlari.....	97
Усманова С.С. Влияние государственной поддержки и регулирование на развитие инноваций на промышленных предприятиях.....	100
Madrahimov U.A. Iqtisodiy o‘shish va kapitaldan samarali foydalanishni optimallashtirish yo‘nalishlari.....	104
Джалилов Д.А. Капиталнинг ялли ички маҳсулотдаги улушини баҳолаш.....	108
Султанова Л.Ш. Абсорбционная способность как медиатор трансформационного экономического роста: теоретические основы.....	111
Mahmudov Sh.N. Location and development of industrial sectors in the regions.....	115
Ustadjalilov D.R. O‘zbekistonda klasterlarni rivojlantirishning institutsional asoslari transformatsiyasi: direktiv modeldan bozor tamoyillariga.....	119
Гайбуллаев Ф. Олий таълимда коррупцияга ўрин бўлмаслиги керак!.....	125
Abdurazakova F.D., Normurodov X.E. Aholi moliyaviy savodxonligi va moliyaviy madaniyati o‘rtasidagi oshirish imkoniyatlarini baholash.....	129
Muxtarov M.M. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi asosida sanoat klasterlarini shakllantirish modellari: O‘zbekiston uchun istiqbollar.....	136
Ro‘zmatov B.Z., Shodiyeva N.H. Turistik infratuzilmani rivojlantirish bo‘yicha xalqaro tajriba va uning taqqoslovchi tahlili.....	140

Rahmatova N.A., Mustafayeva H. O‘zbekistonda pensiya ta’minoti tizimining muammolari va hal etish yo‘llari.....	147
Ахмедов Х. Тинчлик ва хавфсизлик — барқарорлик, иқтисодий ўсиш ва фаровонлик гарови.	154
Boboyev A.Ch. Qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishni barqaror rivojlantirish yo‘nalishlari.....	159
Исраилов З.А. Яшил иқтисодиёт технологиялари: халқаро тажриба ва қиёсий таҳлил.....	165
Ikromov A.Sh. Mahalliy korxonalarda mahsulot raqobatbardoshligini boshqarish amaliyotining o‘ziga xos xususiyatlari.....	169
Ҳалмирзаев А.А., Қодиров Б.Ш. Ёшлар бандлигини таъминлашнинг хорижий тажрибалари.....	175
Elmurodov Sh.Sh. A framework for integrating fiscal risks into the assessment of regional financial security.....	183
Axmadjonov S.S. Tadbirkorlik va biznesni qo‘llab – quvvatlashni baholash mezonlari.....	188
Sabirova Z.U. Sanoat va sanoat korxonalarining raqamli transformatsiyasi jarayonlarini tahlil qilishga uslubiy yondashuv.....	192
Pardayev T.N., Alimuxamedov Sh.R. Chetdan olib kelinayotgan tovarlarning bojxona qiymatini aniqlashni takomillashtirishning ayrim masalalari.....	197
Кадыров А., Исхаков А.К., Турсунова Н.Х. Реализация механизма стратегического управления акционерного общества «Узавтосаноат» на основе прогнозирования его развития.....	203
Zoxidov T.M. Moliyaviy hisobotni buxgalteriya hisobining milliy standartlaridan (BHMS) moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (MHXS) o‘tkazishning muammolari va yechimlari.....	211
Nabiyeva N.M. Turizm xizmatlari bozorida hududiy destinatsiyalar samaradorligini o‘rganish.....	216
Sharofiddinov Sh.U. Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarda mhxs asosida tuzilgan moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotni axborot manbai sifatidagi afzalliklari.....	221
Nurmatov Z.Sh. O‘zbekiston respublikasida moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarini (MHXS) joriy etishning iqtisodiy ahamiyati va amaliy dolzarbligi.....	225
Содиқов А.М., Зокиров С.С. Саноатни модернизациялаш ва диверсификациялашнинг янги стратегияси.....	230
Narmanov U., Ikromova S. Fond bozorlariga xorijiy investorlarni jalb qilishni rag‘batlantirish yo‘nalishlari.....	238
Qutbiddinov A.B. Samarali faoliyat imkoniyatlarini amalga oshirishda boshqaruv xodimlari qobiliyatlaridan foydalanish darajasi va uni oshirish imkoniyatlari.....	241
Qayumova Sh.S. Mahalliy xomashyo bazasiga ega sanoat korxonalarida investitsiya samaradorligini belgilovchi omillar va ularni oshirishning vertikal integratsiya asosidagi optimallashtirilgan modeli.....	246
Turebekov A.A. Ishlab chiqarish xarajatlarining iqtisodiy sifatining tahlili.....	252
Kurbanova M.N., Azizov A.A. Qadimgi klassik iqtisodiy maktablarning shakllanishi va ularning zamonaviy iqtisodiyot rivojlanishiga ta’siri.....	255
Samadova G.S. O‘zbekiston iqtisodiyotida tarkibiy o‘zgarishlarning iqtisodiy o‘shishga ta’siri.....	259
Абдуллаева Р. Инклюзив тadbirkorlikнинг моҳияти ва хориж тажрибаси.....	264
To‘uchiyeva B.V. Oziq-ovqat sanoati korxonalarini barqarorligini ta’minlashda strategik boshqarishning dolzarbligi.....	268
Amnah Saeed J Alhindi The role of financial resources in ensuring corporate financial stability.....	272
Fayziyev O.R. O‘zbekistonda baliqchilik klasterlarini moliyalashtirishning hududiy va tarmoq xususiyatlari.....	276
Алимов Р.А., Султанова Л.Ш. Абсорбционная способность и искусственный интеллект: многоуровневая модель и фигура нового интеллектуала.....	280
Teshayev Z.J., Muxitdnov Sh.X. Logistika xizmat ko‘rsatish korxonalarini resurslaridan foydalanishning hududiy iqtisodiy rivojlanishiga ta’siri.....	284
Xaydarov X.U., Raxmonov D.R. 1907-yilgi moliyaviy inqiroz: sabablari, kechishi va jahon moliya tizimiga ta’siri.....	288
Солижонов М.А. Ўзбекистон монетар сиёсатининг савдо балансига таъсирини баҳолаш....	292
Rejapov X.X. Davlat xarajatlarining samaradorligini baholash mexanizmlari.....	297

8. World Bank. (2022). Subnational Fiscal Sustainability and Risk Management. Washington, D.C.
9. Allen, R., Hemming, R., & Potter, B. (2013). The International Handbook of Public Financial Management. Palgrave Macmillan, London.
10. Musgrave, R. A., & Musgrave, P. B. (1989). Public Finance in Theory and Practice. McGraw-Hill, New York.
11. Abulkosimov, H., & Tagay, A. (2024). Issues of Ensuring Financial Security in the Republic of Uzbekistan. Yangi O‘zbekiston Journal, No. 7, pp. 12–18.
12. Imanova, U. (2021). Methodological Approaches to Managing Local Budget Financial Resources in Regional Development. Tashkent.
13. Ministry of Finance of the Republic of Uzbekistan. (2024). Medium-Term Fiscal Strategy and Macro-Fiscal Risk Assessment. Tashkent.

UDK: 334.72

**TADBIRKORLIK VA BIZNESNI QO‘LLAB – QUVVATLASHNI BAHOLASH
MEZONLARI**

КРИТЕРИИ ОЦЕНКИ ПОДДЕРЖКИ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА И БИЗНЕСА

EVALUATION CRITERIA FOR ENTREPRENEURSHIP AND BUSINESS SUPPORT

Axmadjonov Sodiq Soliyevich

Andijon davlat texnika instituti “Iqtisodiyot” kafedrasida katta o‘qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur ishda tadbirkorlik va biznes subyektlarini qo‘llab-quvvatlash tizimini baholash mezonlari yoritiladi. Unda davlat tomonidan ko‘rsatiladigan moliyaviy, institutsional va axborot-konsultativ xizmatlar samaradorligini aniqlash usullari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, qo‘llab-quvvatlash infratuzilmasi, biznes muhitining qulayligi, tadbirkorlik faolligining o‘shish dinamikasi va innovatsion faoliyatni rag‘batlantirish omillari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari iqtisodiy rivojlanish jarayonida tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining takomillashtirilishiga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: tadbirkorlik, biznes, baholash mezonlari, qo‘llab-quvvatlash, infratuzilma, innovatsiya, davlat siyosati.

В данной работе рассматриваются критерии оценки системы поддержки предпринимательства и бизнеса. Анализируются методы определения эффективности финансовой, институциональной и информационно-консультационной поддержки, предоставляемой государством. Изучаются инфраструктура поддержки, благоприятность бизнес-среды, динамика роста предпринимательской активности и факторы стимулирования инновационной деятельности. Результаты исследования способствуют совершенствованию механизмов поддержки предпринимательства в процессе экономического развития.

Ключевые слова: предпринимательство, бизнес, критерии оценки, поддержка, инфраструктура, инновации, государственная политика.

This paper examines the evaluation criteria for entrepreneurship and business support systems. It analyzes methods for assessing the effectiveness of governmental financial, institutional, and information-consulting assistance. The study reviews support infrastructure, business environment favorability, the dynamics of entrepreneurial activity growth, and factors that stimulate innovation. The findings contribute to improving support mechanisms for entrepreneurship within the economic development process.

Keywords: entrepreneurship, business, evaluation criteria, support, infrastructure, innovation, public policy

Bugungi globallashuv va raqamli iqtisodiyot sharoitida tadbirkorlik va biznesni rivojlantirish har bir davlatning barqaror iqtisodiy o‘lishini ta‘minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik aholi bandligini oshirish, yangi ish o‘rinlari yaratish, raqobat muhitini kuchaytirish hamda innovatsiyalarni joriy etishda muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlarning samaradorligini aniqlash va baholash masalasi bugungi kunda nihoyatda dolzarbdir.

Tadbirkorlik va biznesni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qabul qilinayotgan davlat dasturlari, imtiyozlar, subsidiyalar va moliyaviy yordamlar kutilgan natijani berayotganini aniq mezonlar asosida baholamasdan turib, ularni takomillashtirish mumkin emas. Baholash mezonlarining mavjudligi ajratilgan resurslardan oqilona foydalanish, samarasiz mexanizmlarni aniqlash va ularni bartaraf etish imkonini beradi. Shuningdek, tadbirkorlik muhitini baholash mezonlari investorlar uchun ham muhim axborot manbai bo‘lib xizmat qiladi. Aniq va shaffof baholash tizimi ichki va tashqi investitsiyalarni jalb etishga, biznes muhitiga bo‘lgan ishonchni oshirishga yordam beradi. Bu esa iqtisodiy barqarorlik va raqobatbardoshlikni kuchaytiradi.

Ayniqsa, O‘zbekiston sharoitida iqtisodiy islohotlar chuqurlashib borayotgan bir paytda tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash samaradorligini baholash mezonlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu mezonlar orqali kichik biznes subyektlarining real holati, duch kelayotgan muammolari va rivojlanish istiqbollari aniqlanadi. Jamiyat taraqqiyotini qaysi bosqichida bo‘lmasin tadbirkorlik va biznesni rivojlantirish davlat hokimiyati organlari, ularning vakillari diqqat markazida bo‘lib kelingan. Chunki jamiyat ehtiyojlarini ta‘minlash asosan tadbirkorlik va biznes sub‘ektlari zimmasida bo‘lgan.

Tadbirkorlik va biznesni qo‘llab-quvvatlashni baholash mezonlari tadbirkorlik subyektlari uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar, ularga ko‘rsatilayotgan moliyaviy, huquqiy va tashkiliy yordamning samaradorligini aniqlashga xizmat qiladi. Ushbu mezonlar orqali davlat va nodavlat tashkilotlar tomonidan amalga oshirilayotgan qo‘llab-quvvatlash choralari biznes rivojiga qanchalik ijobiy ta‘sir ko‘rsatayotgani baholanadi.[1]

Baholash mezonlarining asosiy mazmuni, avvalo, huquqiy muhitning qulayligi bilan bog‘liq bo‘lib, bunda tadbirkorlik faoliyatini ro‘yxatdan o‘tkazishning soddaligi, litsenziya va ruxsatnomalar olish jarayonlarining shaffofligi hamda qonun hujjatlarining barqarorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, davlat organlarining tadbirkorlar bilan o‘zaro munosabatlarida ochiqlik va byurokratik to‘siqlarning kamaytirilganligi ham muhim mezon hisoblanadi.[2]

Moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mezonlari tadbirkorlarning bank kreditlari, subsidiyalar, grantlar va investitsiya resurslariga kirish imkoniyatlarini baholashni o‘z ichiga oladi. Kredit foiz stavkalarining qulayligi, garov talablarining soddalashtirilishi va soliq imtiyozlarining mavjudligi biznes faoliyatining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.[3]

Infratuzilmaviy ta‘minot ham baholash mezonlarining muhim yo‘nalishi bo‘lib, bunda ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish uchun zarur bo‘lgan elektr energiyasi, transport, aloqa va logistika tizimlarining rivojlanganligi e‘tiborga olinadi. Sanoat zonalari, texnoparklar va biznes-inkubatorlarning faoliyati tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash darajasini belgilovchi omillardan hisoblanadi.[4]

Shuningdek, bozor sharoitlari va raqobat muhitining mavjudligi, mahsulot va xizmatlarni ichki hamda tashqi bozorlarga chiqarish imkoniyatlari, kadrlar salohiyati va tadbirkorlik bo‘yicha bilim hamda maslahat xizmatlarining rivojlanganligi ham baholash mezonlariga kiradi. Yakunda esa tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash natijasida yaratilayotgan yangi ish o‘rinlari, biznes subyektlari sonining ko‘payishi va aholi daromadlarining oshishi umumiy samaradorlik ko‘rsatkichlari sifatida baholanadi.

Tadbirkorlik va biznesni qo‘llab-quvvatlashni baholash mezonlari nafaqat mavjud shart-sharoitlarni tahlil qilish, balki kelgusida iqtisodiy siyosatni takomillashtirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu mezonlar yordamida hududlar, tarmoqlar va alohida tadbirkorlik subyektlari kesimida

qo‘llab-quvvatlash darajasi solishtiriladi hamda eng samarali mexanizmlar aniqlanadi. Baholash jarayonida tadbirkorlarning davlat xizmatlaridan foydalanish tezligi va sifati alohida e‘tiborga olinadi. Elektron xizmatlar ulushining oshishi, raqamli platformalar orqali ruxsatnomalar va hisobotlarning topshirilishi tadbirkorlik muhitining qulayligini oshiruvchi muhim mezonlardan biridir. Shu bilan birga, korrupsiya xavfining kamayishi va tekshiruvlar sonining qisqarishi ham biznesni qo‘llab-quvvatlash samaradorligini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Innovatsion faoliyatni rag‘batlantirish darajasi ham baholash mezonlari tarkibiga kiradi. Ilmiy-tadqiqot ishlanmalariga ajratilayotgan mablag‘lar, startap loyihalarni qo‘llab-quvvatlash, yangi texnologiyalarni joriy etish imkoniyatlari tadbirkorlikning raqobatbardoshligini oshiradi. Intellektual mulk huquqlarining himoyasi esa innovatsion biznes rivojlanishining muhim sharti hisoblanadi. Tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashning ijtimoiy jihatlari ham baholashda inobatga olinadi. Xotin-qizlar, yoshlar va nogironligi bo‘lgan shaxslar tadbirkorligini rivojlantirishga qaratilgan dasturlar, oilaviy biznesni qo‘llab-quvvatlash choralarning samaradorligi jamiyatda iqtisodiy faollikni oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, ekologik barqarorlik, ya‘ni “yashil biznes” va atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan ishlab chiqarish turlarini rag‘batlantirish ham zamonaviy baholash mezonlaridan biri hisoblanadi. Umuman olganda, tadbirkorlik va biznesni qo‘llab-quvvatlashni baholash mezonlari kompleks yondashuvni talab etadi. Ushbu mezonlar iqtisodiy o‘rinishni ta‘minlash, raqobatbardosh biznes muhitini shakllantirish va aholi farovonligini oshirishda muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

So‘nggi yillarda tadbirkorlik va biznesni qo‘llab-quvvatlash masalalari iqtisodiy adabiyotlarda keng yoritilmoqda. Xususan, mahalliy va xorijiy olimlar tadbirkorlik muhitini yaxshilash, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish hamda ularning samaradorligini baholash mezonlariga alohida e‘tibor qaratmoqda.

Iqtisodiy nazariya asoschilaridan biri J. Shumpeter tadbirkorlikni iqtisodiy rivojlanishning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida talqin qilib, innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash muhimligini ta‘kidlaydi. Uning fikricha, tadbirkorlikni rag‘batlantirish iqtisodiy o‘rinish va raqobatbardoshlikni ta‘minlaydi.

O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlar va tadqiqotchilar (masalan, A. Vahobov, B. Xodiev, Sh. Mustafakulov va boshqalar) o‘z ilmiy ishlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda davlat siyosatining o‘rni, imtiyozlar tizimi hamda ularning natijadorligini baholash masalalarini yoritgan. Ularning tadqiqotlarida baholash mezonlari sifatida yangi ish o‘rinlari yaratish, YAIMdagi ulush, soliq tushumlari va biznes subyektlarining barqarorligi keltiriladi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash samaradorligini baholash uchun yagona mezon yetarli emas, balki kompleks (institutSIONal, moliyaviy, ijtimoiy va innovatsion) yondashuv zarur.

Biznesni qo‘llab – quvvatlashni turlari mavjud bo‘lib ular quyidagilardan iborat.

1. Tadbirkorlik va biznesni markaziy davlat organlari omonidan qo‘llab quvvatlanadi.

2. Tadbirkorlik va biznesni mahalliy hokimiyat organlari omonidan qo‘llab quvvatlanadi.[1]

Tadbirkorlik va biznesni qo‘llab-quvvatlashning baholash mezonlari quyidagi asosiy ko‘rsatkichlar orqali aniqlanadi:

1. Moliyaviy qo‘llab-quvvatlash darajasi: kreditlar, subsidiyalar, grantlar va imtiyozli moliyalashtirish hajmi, foiz stavkalari va qaytarish shartlarining qulayligi

2. Huquqiy va me‘yoriy muhit: biznesni ro‘yxatdan o‘tkazishning soddaligi, ruxsat berish va litsenziyalash tartiblarining yengilligi, Soliq yukining darajasi va barqarorligi

3. Infratuzilmaviy ta‘minot: ishlab chiqarish va logistika infratuzilmasi, sanoat zonalari, texnoparklar va biznes-inkubatorlar mavjudligi

4. Axborot va maslahat xizmatlari: tadbirkorlarga konsalting, trening va mentorlik xizmatlari, bozor, eksport va innovatsiyalar bo‘yicha axborotga kirish

5. Kadrlar va inson kapitali: malakali ishchi kuchi mavjudligi, kasb-hunar va biznes ta‘limi tizimining rivojlanganligi

6. Innovatsiya va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash: raqamlashtirish darajasi, ilmiy-tadqiqot va startaplarni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari

7. Bozorga kirish va raqobat muhiti: ichki va tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlari, monopoliyaga qarshi siyosat samaradorligi

8. Natijadorlik ko‘rsatkichlari: yangi korxonalar soni va ularning barqarorligi, yaratilgan ish o‘rinlari, tadbirkorlikning YAIM va eksportdagi ulushi

2025 yil 1 oktyabr holatiga O‘zbekistonda 1,21 million faol kichik biznes subyektlari mavjud bo‘lib, bunda: 479 000 kichik korxonalar va mikrofirmalar, 281 900 yakka tartibdagi tadbirkorlar, 422 300 dehqon va fermer xo‘jaliklari, 22 100 hunarmandlar, 900 import savdo subyektlari mavjud edi[5].

Biznes faoliyatni rivojlantirishda takliflar:

1. Administrativ yukni kamaytirish: Biznes ro‘yxatdan o‘tish, litsenziya, ruxsatnomalarni olish jarayonlarini soddalashtirish va elektronlashtirish — bu yosh tadbirkorlar va mikrofirmalar uchun katta qulaylik bo‘ladi.

2. Imtiyozli moliyalashtirish va kredit dasturlari kengaytirilsin: xususan, startaplar, kichik va mikrokorxonalar uchun subsidiyalar, imtiyozli kreditlar, grantlar ajratish kerak — bu ularning barqarorligini va o‘sishini qo‘llab-quvvatlaydi.

3. Raqamli iqtisodiyot va e-buxgalteriya tizimlarini joriy etish: kichik biznesni raqamlashtirish, bulutli hisoblash, elektron savdo va onlayn boshqaruv tizimlarini tatbiq qilish — raqobatbardoshlik va samaradorlikni oshiradi.

4. Regional inklyuzivlik siyosatini yo‘lga qo‘yish: hududlararo differensiyalangan qo‘llab-quvvatlash, infratuzilma rivojlantirish, logistika, hududiy biznes inkubatorlari yaratish — biznesni faqat katta shaharlarga emas, barcha hududlarga keng yoyish uchun.

5. Biznes inkubatorlari va konsultativ xizmatlar tarmog‘i kengaytirilsin: startaplar, kichik korxonalar uchun mentoring, boshqaruv, marketing, moliyaviy va huquqiy maslahatlar beruvchi markazlar tashkil etish.

6. Soliq va fiskal siyosatda soddalashtirish, kichik biznesga imtiyozlar berish: soliq yukini kamaytirish, deklaratsiya va hisobotni soddalashtirish, soliq imtiyozlari, kichik biznes uchun maxsus rejimlar joriy etish.

7. Innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash va diversifikatsiyani rag‘batlantirish: kichik biznes subyektlarini yangi innovatsion texnologiyalarga, xalqaro bozorga yo‘naltirish, ekologik, raqamli va eksportga yo‘naltirilgan bizneslar uchun alohida dasturlar ishlab chiqish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Vahobov A.V. *Milliy iqtisodiyot va tadbirkorlikni rivojlantirish*. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020 yil.
2. Xodiev B.Yu. *O‘zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiyalash va kichik biznes*. – Toshkent: Fan, 2019yil.
3. Mustafakulov Sh.I. *Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlari*. – Toshkent, 2021 yil.
4. Qodirov A.A. *Tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish*. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2018 yil.
5. Stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi rasmiy sayti
6. Lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik bazasi